

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-mart oylarida Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 17 927,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 5,8 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024-yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 114,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 5,4 % ga yetdi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida Andijon viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi




2025-yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
	2024-yil	2025-yil	
I. YAHM, jami	14 825,8	17 927,1	105,8
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 478,6	17 429,8	105,7
mahsulotlarga sof soliqlar	347,2	497,3	110,2
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	14 478,6	17 429,8	105,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 145,6	2 519,3	103,9
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	5 684,4	7 162,1	106,8
sanoat	4 861,3	6 232,7	106,7
qurilish	823,1	929,4	107,7
xizmatlar	6 648,6	7 748,4	105,3
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2 112,3	2 474,3	107,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 030,4	1 280,1	111,0
boshqa xizmat tarmoqlari	3 505,9	3 994,0	102,1

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 5 170,0 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 3,8 % ga yuqoridir.

2025-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



2025-yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


	2024-yil	2025-yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,7	97,2
mahsulotlarga sof soliqlar	2,3	2,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14,8	14,5
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	39,3	41,1
sanoat	33,6	35,8
qurilish	5,7	5,3
xizmatlar	45,9	44,4
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	14,6	14,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,1	7,3
boshqa xizmat tarmoqlari	24,2	22,9

2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 14,5 % ni, sanoat tarmog'i 35,8 % ni, qurilish 5,3 % ni va xizmatlar sohasi 44,4 % ni tashkil oildi.

Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,6 f.p. (2024-yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,2 f.p. (2024-yilning yanvar-martida – 7,7 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2024-yilning yanvar-martida – 0,9 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,4 f.p. (2024-yilning yanvar-martida – 2,7 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,6 f.p.)ga ko'paydi.

2025-yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,9 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 14,5 %), sanoatda – 106,7 % (35,8 %), qurilishda – 107,7 % (5,3 %), xizmatlar sohasida – 105,3 % ni (44,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 107,6 % (14,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 111,0 % (7,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,1 % dan (22,9 %) iborat bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024-y.

2025- y.



12,4 %

YAHM

5,8 %



3,0%

Qishloq, o'rmon
va baliqchilik xo'jaligi

3,9 %



28,3 %

Sanoat

6,7 %



16,4 %

Qurilish

7,7 %




5,6 %

Xizmatlar

5,3 %

2025-yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024-yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 114,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 120,2 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 113,0 % qayd etildi.

Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 10 612,9 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024-yilning yanvar-mart oylarida – 8 797,2 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 60,9 % ni (2024-yilning yanvar-mart oylarida – 60,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog'liq.

Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

8 797,2

60,8 %

2025- yil

10 612,9

60,9 %

